

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANK
XIZMATLARINI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI
XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH**

Kunishev Otabek Ruzibayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlarini ma'muriy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarining xavfsizlik masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunchiligi hamda xalqaro huquqiy normalar tahlil qilinadi. Mavzuni tahlil qilish jarayonida raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlarini ma'muriy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarining xavfsizlik muammolari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha huquqiy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, bank xizmatlari, ma'muriy-huquqiy tartibga solish, fintech, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, Open Banking, tartibga solish qumdoni, sun'iy intellekt.

**ОБЕСПЕЧЕНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ
БЕЗОПАСНОСТИ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОГО
РЕГУЛИРОВАНИЯ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ
ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

Кунишев Отабек Рузибаевич

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы безопасности административно-правовых механизмов регулирования банковских услуг в условиях цифровой трансформации. В исследовании анализируется соответствующее законодательство Республики Узбекистан, а также международные правовые нормы. В процессе анализа темы выявляются проблемы безопасности административно-правовых

механизмов регулирования банковских услуг в условиях цифровой трансформации и выдвигаются правовые предложения по их устранению.

Ключевые слова: *цифровая трансформация, банковские услуги, административно-правовое регулирование, финтех, кибербезопасность, защита персональных данных, Open Banking, регулятивная песочница, искусственный интеллект.*

**ENSURING AND IMPROVING SECURITY IN THE
ADMINISTRATIVE-LEGAL REGULATION OF BANKING SERVICES
UNDER DIGITAL TRANSFORMATION**

Kunishev Otabek Ruzibayevich

Master's student of Tashkent State Law University

Abstract: *this article examines the security issues of administrative-legal mechanisms for regulating banking services in the context of digital transformation. The study analyzes the relevant legislation of the Republic of Uzbekistan, as well as international legal norms. In the process of analyzing the topic, security problems of administrative-legal mechanisms for regulating banking services in the context of digital transformation are identified, and legal proposals for their elimination are put forward.*

Keywords: *digital transformation, banking services, administrative-legal regulation, fintech, cybersecurity, personal data protection, Open Banking, regulatory sandbox, artificial intelligence.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti global moliya tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, an'anaviy bank xizmatlarini yangicha bosqichga olib chiqmoqda. Banklar faoliyatida sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, blokcheyn, biometrik

identifikatsiya va ochiq dasturiy interfeys (API) kabi ilg'or yechimlarning qo'llanilishi moliyaviy xizmatlarning tezligi, qulayligi va ko'lamini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, bu tendensiya bank sohasini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solishda xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli ishonchlilik masalalarini kun tartibiga olib chiqmoqda.

So'nggi yillarda dunyo bo'ylab bank tizimining raqamli transformatsiyasi bilan bog'liq xavfsizlik muammolari ham jiddiy tus olmoqda. Jumladan, kiberxavfsizlik tahdidlari, ma'lumotlarning ruxsatsiz tarqalishi, algoritmik diskriminatsiya va foydalanuvchi shaxsiy hayoti daxlsizligining buzilishi hollari ortib bormoqda. Moliyaviy axborotlar eng muhim va sezgir ma'lumotlar toifasiga kirgani bois, bank xizmatlarining raqamli shaklda ko'rsatilishida ularni qonuniy himoya qilish, monitoring qilish va tartibga solish tizimini mukammallashtirish dolzarb ehtiyojga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida bank tizimi raqamli transformatsiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu sababli, so'nggi yillarda tijorat banklari tomonidan raqamli mahsulotlar joriy etilmoqda, elektron to'lovlar soni keskin ortmoqda, masofaviy bank xizmatlarining turlari kengaymoqda. Biroq mavjud huquqiy baza bu o'zgarishlarga doimiy tarzda moslasha olmayapti, bu esa bank xizmatlarini xavfsiz va izchil rivojlantirishda huquqiy bo'shliqlarni keltirib chiqarmoqda.

Xususan, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun kabi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar hali zamonaviy texnologiyalar va bank

tizimidagi innovatsion amaliyotlarga to'liq moslashtirilmagan. Bank xizmatlarining xavfsizligini ta'minlash, kiberxavflarning oldini olish va ma'lumotlar muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan kompleks ma'muriy-huquqiy mexanizmlar zarurati ortib bormoqda.

Mazkur tadqiqot aynan mana shu muammolarga e'tibor qaratgan holda, raqamli transformatsiya jarayonida bank xizmatlarini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solishdagi mavjud xavfsizlik muammolarini aniqlash, xalqaro tajribani tahlil qilish hamda O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha amaliy va normativ tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Normativ-huquqiy tahlil: O'zbekiston Respublikasining bank sohasi va axborot xavfsizligiga oid qonunchilik bazasi, xususan, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonun, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli: O'zbekiston qonunchiligi xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslab o'rganildi. Xususan, Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) asosida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishdagi yondashuvlar tahlil qilindi. Shuningdek, AQShning Kaliforniya iste'molchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish to'g'risidagi Qonuni (CCPA), Singapurning "Personal Data Protection Act" (PDPA), Birlashgan Qirollikdagi Open Banking qonunchiligi, Avstraliyaning fintech va regtech sohasiga oid huquqiy modellar bilan O'zbekiston tajribasi solishtirildi.

Ilmiy tahlil: Ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro konferensiyalar materiallari va amaliyotdagi tajribalar tahlil qilindi.

Solishtirma usul: Turli davlatlarning raqamli bank xizmatlari va fintech infratuzilmasini tartibga solishdagi tajribalari o'rganildi.

Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar asosida muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

TADQIQOT NATIJALARI

O'zbekiston Respublikasida bank xizmatlarini raqamli transformatsiya sharoitida xavfsiz va samarali tartibga solish bo'yicha asosiy normativ-huquqiy baza mavjud bo'lishiga qaramay, amaliyotda bu tizimda jiddiy muammolar va huquqiy bo'shliqlar mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda huquqiy tahlil asosida shakllantirildi:

1. Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi tizimi bank sohasida yetarli darajada ishlamayapti, buni "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun (2019) moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi banklar va boshqa tashkilotlar tomonidan mijozlar shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish tartibini umumiy belgilab bergan. Biroq amaliyotda quyidagi muammolar mavjud:

- Banklar tomonidan yig'ilayotgan ma'lumotlarning ko'lami keng, lekin bu ma'lumotlar ustidan foydalanuvchi nazorati cheklangan.

- Xorijiy moliyaviy texnologiyalar asosida ishlovchi xizmatlar O'zbekiston fuqarolarining ma'lumotlarini qanday va qayerda saqlashi bo'yicha aniq tartib mavjud emas.

- Shaxsiy ma'lumotlar uchun "data localization" talabining to'liq va izchil tartibda joriy etilmaganligi ma'lumotlar suverenitetiga putur yetkazmoqda.

2. Ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish va qayta ishlash hollari saqlanib qolmoqda. Bank xizmatlarining raqamli ko'rinishda taklif qilinishi,

foydalanuvchilar bilan masofaviy aloqalar o'rnatilishi shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashda quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda:

Foydalanuvchidan rozilik olmasdan ma'lumot yig'ish hollari;

Foydalanuvchi ma'lumotlarining uchinchi tomonlarga tijoriy maqsadlarda uzatilishi;

Maxfiylik siyosatlarining noaniqligi va murakkabligi tufayli mijozlar o'z huquqlaridan bexabar qolmoqda.

Amaldagi qonunchilikda ma'lumotlarni noqonuniy qayta ishlaganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa-da, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan bu qoidalar amalda yetarli darajada tatbiq etilmayapti.

3. O'zbekiston qonunchiligining xalqaro standartlar bilan nomuvofiqligi mavjud. Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashda ilg'or standartlar majmuasini taqdim etadi. Tadqiqot davomida O'zbekiston qonunchiligi bilan GDPR o'rtasidagi quyidagi farqlar aniqlandi:

O'zbekistonda ma'lumotni qayta ishlashning yagona asosiy sharti — foydalanuvchi roziligi bo'lsa, GDPRda bir nechta asoslar (huquqiy manfaat, shartnoma, jamoat manfaatlari) mavjud.

GDPR buzilgan taqdirda yuqori miqdordagi jarimalar qo'llanilsa, O'zbekistonda bunday sanksiyalar ancha yengil va ayrim holatlarda mutlaqo noaniq.

Mijozning ma'lumotlarini o'chirish ("right to be forgotten") yoki boshqa xizmat ko'rsatuvchiga ko'chirish ("data portability") huquqlari O'zbekiston qonunchiligida aniq ifoda etilmagan.

4. Bank xizmatlarida kiberxavfsizlik muammolari davom etmoqda

Raqamli moliyaviy xizmatlar rivojlanishi bilan kiberxavfsizlik masalasi ham dolzarb tus olmoqda. Jumladan:

Elektron bank xizmatlari platformalarida xavfsizlik protokollari turlicha darajada joriy qilingan;

Mijozlarga axborot xavfsizligiga oid yetarli darajada tushuntirish berilmaydi;

Kichik bank va fintech subyektlari ma'lumotlarni shifrlash, identifikatsiya va autentifikatsiya tizimlarini to'liq joriy etmagan.

TAKLIF ETILAYOTGAN HUQUQIY CHORALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlarini ma'muriy-huquqiy tartibga solish mijozga yo'naltirilgan yondashuv, innovatsion texnologiyalar va xalqaro standartlar asosida amalga oshirilishi zarur ekanligini inobatga olgan holda raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlarini ma'muriy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish **bo'yicha takliflarni quyidagi yo'nalishlar kesimida ifodalaymiz:**

I. Mavjud bankka oid qonunchilik raqamli texnologiyalar – raqamli bank, sun'iy intellekt, blokcheyn, kriptovalyutalar, biometrik identifikatsiya kabi yangi tushunchalarni umuman o'z ichiga olmaydi. Bu esa amaliyotda huquqiy bo'shliq yaratilib, innovatsion xizmatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, bugungi kunda O'zbekistonda 50 dan ortiq fintech startup faoliyat yuritmoqda, lekin ularning aksariyati aniq huquqiy maqomga ega emas va

kulrang zonada ishlashga majbur. Shu bois, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga raqamli banklar, fintech kompaniyalar va innovatsion moliyaviy xizmatlar bo‘yicha alohida boblar kiritish taklif etildi.

II. Zamonaviy banking tizimida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish sohasidagi huquqiy kamchiliklar jiddiy muammo hisoblanadi. Moliyaviy institutlar, shu jumladan banklar mijozlar haqida keng ko‘lamli ma’lumotlar to‘plamoqda, ammo ushbu ma’lumotlardan foydalanish tartibi va xavfsizlik mexanizmlari yetarli darajada huquqiy jihatdan tartibga solinmagan. Yevropa Ittifoqining GDPR tajribasi ma’lumotlar xavfsizligining nafaqat texnik, balki fundamental inson huquqlari masalasi ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli moliyaviy ma’lumotlarni maxsus toifadagi sezgir ma’lumotlar sifatida tan olish va ularga nisbatan kuchaytirilgan himoya choralari, qat’iyroq xavfsizlik talablari hamda javobgarlik mexanizmlarini joriy etish huquqiy zarurat hisoblanadi.

III. Zamonaviy moliya-bank tizimda kiberxavfsizlik masalasi kritik ahamiyat kasb etmoqda, buni 2023-yilda O‘zbekistonda kiberhujumlar soni 40 foizga oshgan va bu tendentsiya davom etmoqda¹. Bank qonunchiligida kiberxavfsizlik talablari qismlarga bo‘lingan holda, turli me’yoriy hujjatlarda tarqoq tarzda belgilangan. Yagona kompleks yondashuv yo‘qligi sababli ko‘plab moliyaviy institutlar kiberxavfsizlik sohasida o‘z imkoniyatlariga qarab harakat qilmoqda. Moliyaviy institutlar uchun yagona kiberxavfsizlik standartlari, majburiy monitoring mexanizmlari va kuchaytirilgan nazoratchi vakolatlarni belgilovchi kompleks huquqiy tizimni joriy etish zarur.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank “CERT-CBU” kiberxavfsizlik markazi. <https://cert.cbu.uz/>.

IV. Open Banking konsepsiyasining yo'qligi O'zbekiston moliyaviy bozorida raqobat muhitini cheklaydi va innovatsiyalar rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, Open Banking joriy etilgandan so'ng fintech kompaniyalar soni 3 barobarga oshgan va mijozlar uchun xizmatlar narxi 30 foizga kamaygan. Shuni inobatga olgan holda, Open Banking konsepsiyasini qonuniy ravishda joriy etish, API standartlarini belgilash va moliyaviy ma'lumotlar almashuvini tartibga soluvchi huquqiy bazani yaratish orqali raqobat muhitini oshirish va fintech innovatsiyalarini rag'batlantirish lozim.

V. Tartibga soluvchi qumdon (regulatory sandbox) mexanizmining qonun darajasida mavjud emasligi innovatsion g'oyalarning hayotga tatbiq etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Singapur, Buyuk Britaniya, Avstraliya kabi mamlakatlarning qonunchilik darajasida belgilash tajribasi shuni ko'rsatadiki, nazorat ostidagi sinov muhiti yaratish orqali ham innovatsiyalarni rag'batlantirish, ham moliyaviy barqarorlikni saqlash mumkin.

VI. Sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi yangi etik va huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Kredit ajratish bo'yicha qarorlarini SI yordamida qabul qilish tezkor va samarali bo'lsa-da, algoritmlardagi noaniqlik va potensial diskriminatsiya xavfi mavjud. Shuning uchun algoritmik shaffoflik, tushuntirish majburiyati va inson nazorati kabi tamoyillarni qonun darajasida belgilash taklif etildi.

Mazkur takliflar asosida batafsil ravishda Raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlarining ma'muriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlari normalaridagi

mavjud muammolar, sohaga oid xorijiy davlatlarning qonunchilik amaliyoti hamda takliflar yuzasidan taqqoslash jadvali va qonunchilikka o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar mazkur dissertatsiyaga ilovalarda keltirilgan

XULOSA

Raqamli transformatsiya qaytarib bo'lmaz jarayon bo'lib, O'zbekiston bank tizimi bu o'zgarishlarga tayyor bo'lishi shart. Taklif etilayotgan o'zgartirishlar bir tomondan innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratsa, ikkinchi tomondan moliyaviy barqarorlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qiladi. Muhimi, bu o'zgarishlar bosqichma-bosqich emas, balki yaxlit tizim sifatida izchil amalga oshirilishi lozim. Faqat shundagina O'zbekiston global moliyaviy texnologiyalar poygasida orqada qolmay, o'z o'rnini egallashi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN AABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi 05.11.2019 yildagi O'RQ-580-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4581969>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi 11.11.2019 yildagi O'RQ-582-son Qonuni: <https://lex.uz/ru/docs/-4590452>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz/oz/lists/view/3324>.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi PF-5992-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4811025>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 09-noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-244-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6279879>.

9. Davlyatov V.X., Ergashev LA., Rahmatov E.J. Xalqaro moliya va bank huquqi. Darslik. - Toshkent: TDYU, 2019.- 120 b.

10. Хужаев Ш.А. Совершенствование гражданско-правового регулирования деятельности иностранных банков в Республике Узбекистан: Дис...канд. юр. наук – Ташкент: ТГЮУ, 2019. – 185 с.

11. J.N.Nematov. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy tartib-taomillarning huquqiy asoslarini takomillashtirish (qiyosiy-huquqiy tahlil): yur. fan. doktori (DSc) – Toshkent shahri: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, 2019. - 286 b.



12. D.A Zetzsche, W.A Birdthistle, D.W Arner and R.P Buckley. Digital Finance Platforms: Towards a New Regulatory Paradigm: University of Pennsylvania, Journal of Business Law. 2020. – 339 p.